



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 3 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 9, НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 9, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2026

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамова Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ермегов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Рашидов Ойбек Расулович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Ахмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқулловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Dilshod Komolov, Asilbek Zulfiqorov</b> YANGI O‘ZBEKISTONDA ADVOKATURA INSTITUTINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	5
<b>2. Faxriddin Yormatov, Nurullo Tursunov</b> JAMIYAT HAYOTIDA NURONIYLARNING TUTGAN O‘RNI VA YANGI O‘ZBEKISTONDA ULARNI HAR TOMONLAMA QO‘LLAB-QUVVATLASHNING AMALIY IFODASI.....	11
<b>3. Nodira Toliboyeva</b> O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNI TA‘LIM TIZIMIGA JALB ETISH: TARIXIY TAJRIBA VA MUAMMOLAR.....	18
<b>4. Гулчехра Дадамирзаева</b> СОВЕТЛАРНИНГ КОСИБ-ХУНАРМАНДИЧИЛИК ИШЛАБ ЧИҚАРИШИ СОҲАСИДАГИ ДАВЛАТ СИЁСАТИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ.....	23
<b>5. Akmal Mengliboyev</b> QIZIL ARMIYA BOSQINIGA QARSHI SURXON VOHASIDA KURASHNING BOSHLANISHI.....	32
<b>6. Ulug‘bek Mirzaliyev, Farhod Umurzoqov</b> SIRDARYO VA JIZZAX VILOYATLARIDAGI URBANIZASIYA JARAYONLARI.....	39
<b>7. Абдисаттор Қосимов</b> ЧОРВАЧИЛИКДА СУРХОН-ШЕРОБОД ВОҲАСИ АСРИЙ ХЎЖАЛИК АНЪАНАЛАРИ.....	45
<b>8. Sardorbek Rahimberdiyev</b> TRANSMILLIY MIGRATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEK MIGRANTLARINING MADANIY IDENTIFIKATSIYASI VA KUNDALIK HAYOT STRATEGIYALARI (KOREYA RESPUBLIKASI MISOLIDA).....	49
<b>9. Shavkat Shapiyev</b> FARHOD GIDRO ELEKTR STANSIYASI – O‘ZBEKISTONNING ENERGETIKA USTUNI.....	57
<b>10. Diyora Chorshanbiyeva</b> 2016-YILDAN KEYIN O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI VA YOSHLAR MASALASI.....	65
<b>11. Sitara Nosirova</b> DOSTONLARDA O‘ZBEK OILASINING IJTIMOIIY HAYOTDAGI KO‘RINISHLARI.....	72
<b>12. Lutfillo Mamasaidov</b> O‘ZBEKISTONDA SAVODSIZLIKNING TUGATILISHI VA YANGI TA‘LIM TIZIMINI TASHKIL ETILISHI TARIXIDAN.....	76



**Sardorbek Bekmurod o'g'li Rahimberdiyev,**  
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali,  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası, katta o'qituvchi  
sardorbek.rakhimberdiyev@mail.ru  
ORCID ID 0009-0007-4129-9386

**TRANSMILLIY MIGRATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK MIGRANTLARINING  
MADANIY IDENTIFIKATSIYASI VA KUNDALIK HAYOT STRATEGIYALARI  
(KOREYA RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

**For citation:** Sardorbek Rahimberdiyev. CULTURAL IDENTITY AND EVERYDAY LIFE STRATEGIES OF UZBEK MIGRANTS IN THE CONTEXT OF THE TRANS-MILLION MIGRATION CRISIS (USING THE EXAMPLE OF THE REPUBLIC OF KOREA). Look to the past. 2026, vol. 9, issue 3.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18941962>

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada Koreya Respublikasida yashayotgan o'zbek migrantlarining mehnat, ta'lim va nikoh migratsiyasi sharoitida shakllanayotgan madaniy identifikatsiyasi hamda kundalik hayot strategiyalari transmilliy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda migratsiya shakllari alohida yo'nalishlar sifatida yemas, balki o'zaro bog'liq, ijtimoiy jihatdan o'tuvchan va bir-birini to'ldiruvchi transmilliy migratsiya tizimi sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'zbek migrantlarining mehnat munosabatlari, ta'lim orqali ijtimoiy harakatchanlik strategiyalari, nikoh migratsiyasi doirasida gender va oilaviy munosabatlarning transformatsiyasi, shuningdek, til, din va kundalik amaliyotlarning madaniy identifikatsiyaga ta'siri yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** transmilliy migratsiya, mehnat migratsiyasi, ta'lim migratsiyasi, nikoh migratsiyasi, madaniy identifikatsiya, kundalik hayot strategiyalari, Koreya Respublikasi.

**Сардорбек Рахимбердиев,**  
Наманганский филиал Ташкентского  
международного химического университета,  
Старший преподаватель кафедры  
социальных и гуманитарных наук

**КУЛЬТУРНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ И СТРАТЕГИИ ПОВСЕДНЕВНОЙ ЖИЗНИ  
УЗБЕКСКИХ МИГРАНТОВ В УСЛОВИЯХ ТРАНСМИЛЛИОННОГО  
МИГРАЦИОННОГО КРИЗИСА (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КОРЕЯ)**

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье на основе транснационального подхода анализируются культурная идентификация и стратегии повседневной жизни узбекских мигрантов, проживающих в

Республике Корея, в условиях трудовой, образовательной и брачной миграции. Миграция рассматривается не как совокупность отдельных направлений, а как взаимосвязанная, социально подвижная и взаимодополняющая транснациональная миграционная система. В работе освещаются трудовые отношения узбекских мигрантов, стратегии социальной мобильности через образование, трансформация гендерных и семейных отношений в рамках брачной миграции, а также влияние языка, религии и повседневных практик на формирование культурной идентичности.

**Ключевые слова:** транснациональная миграция, трудовая миграция, образовательная миграция, брачная миграция, культурная идентичность, стратегии повседневной жизни, Республика Корея.

**Sardorbek Rahimberdiev,**  
Namangan branch of the Tashkent  
International Chemical University,  
Senior Lecturer, Department of Social  
Sciences and Humanities

## CULTURAL IDENTITY AND EVERYDAY LIFE STRATEGIES OF UZBEK MIGRANTS IN THE CONTEXT OF THE TRANS-MILLION MIGRATION CRISIS (USING THE EXAMPLE OF THE REPUBLIC OF KOREA)

### ABSTRACT

This article analyzes the cultural identification and daily life strategies of Uzbek migrants residing in the Republic of Korea within the contexts of labor, educational, and marriage migration, based on a transnational approach. The study considers migration not as separate and isolated forms, but as an interconnected, socially fluid, and mutually reinforcing transnational migration system. The research highlights Uzbek migrants' labor relations, strategies of social mobility through education, transformations of gender and family relations within marriage migration, as well as the impact of language, religion, and everyday practices on cultural identification.

**Index Terms:** transnational migration, labor migration, educational migration, marriage migration, cultural identification, daily life strategies, Republic of Korea.

### 1. Dolzarbligi:

XXI asrda migratsiya jarayonlari murakkab va ko'p qatlamli ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lib, u faqat aholi harakati yoki iqtisodiy bandlik bilan cheklanmaydi. Zamonaviy migratsiya mehnat, ta'lim va nikoh migratsiyasi kabi turli shakllarni o'z ichiga olgan yagona transmilliy tizim sifatida shakllanmoqda. Ushbu jarayonda migrantlarning madaniy identifikatsiyasi qat'iy va o'zgarmas holat emas, balki kundalik hayot amaliyotlari, ijtimoiy munosabatlar va transmilliy aloqalar ta'sirida doimiy ravishda qayta shakllanib boruvchi jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar migratsiyaning turli shakllarini jadallashtirdi. Dastlab mehnat migratsiyasi ustuvor yo'nalish sifatida shakllangan bo'lsa, keyingi yillarda ta'lim migratsiyasi va xalqaro nikohlar bilan bog'liq migratsiya oqimlari ham sezilarli darajada kengaydi [17]. Xususan, Koreya Respublikasi o'zbekistonliklar uchun nafaqat mehnat bozori, balki ta'lim olish va nikoh orqali doimiy yoki uzoq muddatli yashash strategiyalarini amalga oshirish makoniga aylandi.

Ushbu maqolaning maqsadi Koreya Respublikasida yashayotgan o'zbek migrantlarining mehnat, ta'lim va nikoh migratsiyasi sharoitida madaniy identifikatsiyasi va kundalik hayot strategiyalarini kompleks tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda migratsiyaning ushbu shakllari o'zaro uzviy bog'liq ijtimoiy strategiyalar sifatida talqin qilinadi.

### 2. Metodlar:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, ob’yektivlik, ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, statistik tadqiqot, materilallrni tanlash va tasniflash tamoyillari aosisda yoritilgan.

### 3. Tadqiqot natijalari:

Koreya Respublikasiga yo‘naltirilgan mehnat, ta’lim va nikoh migratsiyasining shakllanishi. Koreya Respublikasiga o‘zbek migrantlarining yo‘naltirilgan migratsiyasi dastlab mehnat migratsiyasi shaklida vujudga kelgan. Sanoatlashtirish va demografik o‘zgarishlar natijasida Koreyada past malakali ishchi kuchiga ehtiyojning ortishi xorijiy migrantlarni jalb etishni taqozo etdi[1]. Ushbu ehtiyojni qondirish maqsadida joriy etilgan Employment Permit System (EPS) o‘zbekistonlik migrantlarning Koreyaga qonuniy kirib kelishi va mehnat faoliyatini amalga oshirishining asosiy institutsional mexanizmiga aylandi. Yangi tizimning huquqiy asoslari Koreya Respublikasi Mehnat va bandlik vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan. Dastlab, oltita davlat: Filippin, Vetnam, Tailand, Indoneziya, Mo'g'uliston va Shri-Lanka bilan o'zaro anglashuv memorandumi imzolandi. Keyinchalik, 2006-yilda O‘zbekiston, Pokiston va Kambodja EPS dasturiga qo‘shildi[8].

Yil	Mehnat migrantlari	Nikoh migrantlari
1995	877	0
1996	1045	0
1997	1279	0
1998	436	0
1999	875	0
2000	1847	43
2001	267	66
2002	825	183
2003	4557	328
2004	177	247
2005	2123	332
2006	2799	314
2007	227	351
2008	3455	492
2009	1424	365
2010	3814	317
2011	2706	324
2012	4015	365
2013	3283	269
2014	2660	255
2015	2718	224
2016	2446	232
2017	2632	236
2018	2251	276
2019	1717	285
2020	94	133
2021	732	165
2022	4901	172
2023	4882	189
2024	3097	171
2025	156	0

**1-rasm. 1995–2025-yillarda Koreya Respublikasiga yuborilgan o‘zbekistonlik mehnat va nikoh migrantlari soni (yillar kesimida)[4].**

Mehnat migratsiyasi bilan bir qatorda ta‘lim migratsiyasi ham muhim transmilliy strategiya sifatida shakllandi. Koreya Respublikasining xalqaro ta‘lim bozoridagi mavqei, grant dasturlari va nisbatan yuqori ta‘lim sifati o‘zbekistonlik yoshlarning ushbu mamlakatda o‘qishiga qiziqishini oshirdi. Dala materiallari taliliga ko‘ra, ta‘lim migratsiyasi nafaqat akademik bilim olish, balki til o‘rganish, professional kapital to‘plash va keyinchalik mehnat bozoriga integratsiyalashuvning muhim bosqichi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Nikoh migratsiyasi esa Koreyada yashayotgan o‘zbek migrantlari orasida alohida ijtimoiy hodisa sifatida shakllangan. Mehnat yoki ta‘lim migratsiyasi jarayonida koreys fuqarolari yoki boshqa migrantlar bilan tuzilgan nikohlar migrantlarning huquqiy maqomini o‘zgartirib, ularning kundalik hayoti va madaniy identifikatsiyasiga chuqur ta‘sir ko‘rsatadi[2]. Shu tariqa, Koreya Respublikasidagi o‘zbek migrantlarining migratsiya tajribasi mehnat, ta‘lim va nikoh migratsiyasining bir-biri bilan uzviy bog‘liq va o‘zaro o‘tuvchan shakllarini namoyon etadi. Mazkur holat migratsiyani yagona transmilliy ijtimoiy strategiya sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Mehnat, ta‘lim va nikoh migratsiyasi sharoitida madaniy identifikatsiyaning qayta shakllanishi. Transmilliy migratsiya sharoitida madaniy identifikatsiya migrantlarning kelib chiqish jamiyati va mezbon jamiyat o‘rtasida kechadigan murakkab ijtimoiy jarayonlar ta‘sirida qayta shakllanadi. Migrantlar o‘z vatanlari bilan oilaviy, madaniy va ijtimoiy aloqalarni saqlab qolgan holda, qabul qiluvchi jamiyatda yashaydi, ishlaydi va o‘qiydi. Shuning uchun ularning o‘zini anglashi nafaqat bitta jamiyat ichida, balki ikki yoki undan ortiq ijtimoiy makon ta‘sirida ham shakllanadi[18]. Koreya Respublikasida yashayotgan o‘zbek migrantlari misolida ushbu jarayon mehnat, ta‘lim va nikoh migratsiyasi tajribalarining o‘zaro tutashuvi orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur migratsiya shakllari alohida va mustaqil yo‘nalishlar emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi va ijtimoiy jihatdan o‘zaro o‘tuvchan strategiyalar sifatida amal qiladi.


Mehnat migratsiyasi doirasida shakllanayotgan madaniy identifikatsiya asosan ishlab chiqarish intizomi, ish joyidagi ierarxiya va koreys mehnat madaniyatiga moslashuv bilan bog‘liq. Dala tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, o‘zbek migrantlari kundalik ish jarayonida koreys jamiyatiga xos bo‘lgan intizom, vaqtga qat‘iy rioya qilish va jamoaviy mas‘uliyat tamoyillarini o‘zlashtiradi. Shu bilan birga, ular ushbu moslashuvni milliy o‘zlikdan voz kechish sifatida emas, balki iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan pragmatik strategiya sifatida qabul qiladilar[4]. Natijada, mehnat muhitida funksional moslashuv, norasmiy hayotda esa milliy madaniyatni saqlash modeli shakllanadi.

Ta‘lim migratsiyasi sharoitida madaniy identifikatsiya yanada murakkab va reflektiv xarakter kasb etadi. Koreyada tahsil olayotgan o‘zbek talabalari akademik muhit, raqobatga asoslangan ta‘lim tizimi va xalqaro talabalar jamoasi bilan bevosita muloqotda bo‘ladi. Mazkur akademik va institutsional afzalliklar O‘zbekistonlik talabalar uchun ham muhim motivatsion omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, muhandislik, axborot texnologiyalari, tibbiyot, iqtisodiyot hamda xalqaro munosabatlar yo‘nalishlarida Koreya universitetlari yuqori sifatli akademik tayyorgarlik beruvchi muassasalar sifatida qabul qilinadi[7]. Koreys ta‘lim tizimida olinadigan bilim va ko‘nikmalar xalqaro miqyosda tan olinishi, bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirib, ularning global mehnat bozoriga integratsiyalashuviga xizmat qiladi. O‘zbek yoshlari uchun Koreyada o‘qish mehnat bozoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘l sifatida qaraladi. Koreya migratsiya siyosati ta‘lim va mehnat migratsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni institutsionalizatsiya qiladi, xorijiy bitiruvchilarga o‘qishni tugatgandan so‘ng vaqtincha yoki doimiy ravishda mamlakatda ishlashni davom ettirish imkonini beradi. Xususan, D-2 talaba[19] vizasidan D-10 ish qidiruvchi[20] yoki E-7 ixtisoslashgan faoliyat[16] vizasiga o‘tish imkoniyati ta‘lim migratsiyasining iqtisodiy jozibadorligini sezilarli darajada oshiradi.

Nikoh migratsiyasi esa madaniy identifikatsiyaning eng chuqur va shaxsiy transformatsiyalar bilan kechadigan shakli hisoblanadi. Koreya Respublikasidagi xalqaro nikohlar 1980 va 1990-yillarda yuzaga kelgan va bu jarayon mamlakatdagi demografik inqiroz, urbanizatsiya va gender nomutanosibliyi bilan uzviy bog‘liq edi[6]. Koreya fuqarolari bilan tuzilgan

nikohlar yoki boshqa millat vakillari bilan qurilgan oilalar migrantlarning kundalik hayotini tubdan o'zgartiradi. Dala tadqiqotlari ishtirokchilaridan biriga ko'ra, nikoh migratsiyasi sharoitida o'zbek ayollari va erkaklarining gender rollari, oilaviy majburiyatlar va madaniy normalarga munosabati qayta ko'rib chiqiladi. Bu jarayonda an'anaviy o'zbek oilaviy qadriyatlarini koreys jamiyatining huquqiy va ijtimoiy normalari bilan muvofiqlashtiriladi.

Nikoh migratsiyasi doirasida madaniy identifikatsiya ko'pincha murosali va selektiv xarakterga ega bo'ladi. O'zbek migrantlari o'z milliy urf-odatlarini, diniy e'tiqodlarini va tilini saqlashga intilgan holda, mezbon jamiyat talablariga moslashadi.



**2-Rasm. Nikoh migratsiyasi jarayonida til o'zlashtirish va ijtimoiy moslashuvning transmilliy identitetga ta'siri.**

Dala materiallari tahlili farzand tarbiyasi masalasida ikki madaniyat o'rtasida muvozanat topish nikoh migrantlari uchun eng muhim strategik vazifalardan biri ekanligini ko'rsatdi. Umuman olganda, mehnat, ta'lim va nikoh migratsiyasi sharoitida madaniy identifikatsiya qat'iy va bir yoqlama emas, balki kontekstga bog'liq, vaziyatga moslashuvchan va ko'p qatlamli jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayon migrantlarning kundalik hayot strategiyalari, ijtimoiy tarmoqlari va transmilliy aloqalari orqali doimiy ravishda qayta ishlab chiqiladi.


Mehnat, ta'lim va nikoh migratsiyasi sharoitida kundalik hayot strategiyalari. Transmilliy migratsiya sharoitida kundalik hayot strategiyalari migrantlar uchun iqtisodiy barqarorlikni, ijtimoiy moslashuvni va madaniy o'ziga xoslikni saqlashning asosiy mexanizmlaridan biridir. Koreya Respublikasida yashovchi o'zbek migrantlarining kundalik hayoti mehnat, ta'lim va oilaviy migratsiya tajribalariga qarab turlicha shakllansa-da, ularning barchasini birlashtiruvchi umumiy narsa vaqtinchalik hissi va transmilliy rejalashtirishning ustuvorligidir.

Mehnat migrantlarining kundalik hayoti, avvalo, ishlab chiqarish rejimi va ish vaqti bilan belgilanadi. Soatbay ishlaydigan migrant ishchilarning oylik daromadi to'g'ridan-to'g'ri ishlangan soatlar soniga bog'liq. Agar ishchi qonuniy standartga muvofiq haftasiga 40 soat ishlasa (Koreya mehnat qonunchiligida haftasiga 40 soat va qo'shimcha ish vaqti 52 soatgacha bo'lishi mumkin), oyiga o'rtacha ishlangan soatlar soni 160-173 ni tashkil qiladi[10]. Migrant ishchilar qonun bo'yicha Koreya fuqarolari bilan bir xil minimal oylik ish haqiga ega: 2025-yil holatiga ko'ra taxminan 2 096 270 Koreya voni (taxminan 1475 AQSh dollari)[6]. Bu miqdor qo'shimcha ish vaqtiga qarab yanada oshishi mumkin.

So'nggi yetti yil ichida soatbay ish haqining o'zgarishi dinamikasi shuni ko'rsatadiki, yillik ish haqining o'sish sur'ati, 2019-2022 yillarda nisbatan yuqori bo'lsa-da, 2023-2025 yillarga kelib sekinlashgan. Bu iqtisodiy barqarorlikni saqlash, ish beruvchilarning xarajatlarini cheklash va

mehnat bozorida muvozanatni ta'minlashga qaratilgan siyosat bilan izohlanadi. Shuning uchun ham o'zbek mehnat migrantlarining aksariyati uchun "ish joyi – yotoqxonona – ish joyi" modeli ustuvor bo'lib, bu ularning ijtimoiy hayotini keskin toraytiradi. Bunday sharoitda migrantlar bo'sh vaqtni iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ya'ni qo'shimcha ish soatlarini olish yoki dam olish vaqtini tiklanishga yo'naltirish orqali o'tkazadi. Ushbu strategiya migrantlar tomonidan vaqtinchalik qurbonlik sifatida qabul qilinib, u uzoq muddatli oilaviy va moliyaviy maqsadlarga bo'ysundiriladi.

Ta'lim migrantlarining kundalik hayot strategiyalari nisbatan murakkab va ko'p yo'nalishli xarakterga ega. Koreyada tahsil olayotgan o'zbek talabalari o'qish, yarim stavkali mehnat va ijtimoiy moslashuv o'rtasida muvozanat topishga intiladi. Chunki ular uchun yarim kunlik ish pul topishning keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Buning asosiy sabablari yashash va ta'limning yuqori narxi, shuningdek, mustaqil moliyaviy barqarorlikka intilishdir. Dala tadqiqoti natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qish va ishni birlashtirgan respondentlar ma'lum ijtimoiy-psixologik qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ko'pgina ishtirokchilar (68%) muntazam ish jarayoni ularning o'qishlariga salbiy ta'sir qiladi, charchoq, stress va vaqt bosimini oshiradi va o'qishga to'liq e'tibor qaratish qobiliyatini cheklaydi, deb hisoblashadi. Shu bilan birga, ba'zi respondentlar kamsitish haqida xabar berishgan bo'lsa-da, ularning yuqori xavfsizlik hissi nisbatan barqaror yashash va ish sharoitlaridan dalolat beradi.



### 3-rasm. Koreyada tahsil olayotgan o'zbek talabalarining ish, o'qish va ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari.

Nikoh migratsiyasi nuqtai nazaridan, kundalik hayot strategiyalari oilaviy munosabatlar va gender rollari bilan chambarchas bog'liq. Koreya fuqarolariga turmushga chiqqan yoki uzoq muddatli transmilliy oilalarda yashovchi o'zbek migrantlari kundalik hayotlarini ikki madaniyat o'rtasida muvofiqlashtirishga majbur. Gender bu kundalik hayot strategiyalarida ayniqsa muhim rol o'ynaydi. Dala materiallari tahliliga ko'ra, ba'zi o'zbek ayollari Koreya jamiyatiga xos bo'lgan shaxsiy mas'uliyat va huquqiy tenglik normalarini qabul qiladilar, bu esa an'anaviy gender rollarini qayta ko'rib chiqishga olib keladi. Boshqa tomondan, migrant erkaklar oilani qo'llab-quvvatlash, masofadan farzand tarbiyalash va qarindoshlik majburiyatlarini bajarish orqali transmilliy erkaklik modelini shakllantiradilar.

Diniy amaliyotlar va urf-odatlar migrantlarning kundalik hayotida madaniy barqarorlikni ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Nikoh orqali migratsiya qilgan ayollar mezbon jamiyatda yashab, ishlaydi va ijtimoiylashuv jarayonida faol ishtirok etsalar ham, ular o'zlarining

kelib chiqish jamiyatlari bilan aloqalarini to'liq uzmaydilar. Aksincha, ular qarindoshlik aloqalarini, madaniy xotirani, diniy urf-odatlarini, tilni va axloqiy me'yorlarni saqlab, transmilliy makonda yashashda davom etadilar[3]. O'tkazilgan dala tadqiqotlari jarayonida aniqlanishicha, kundalik oilaviy amaliyotlar – ovqat pishirish, bolalar bilan muloqot qilish, bayramlar va marosimlarni nishonlash va diniy marosimlarni bajarish – shunchaki oddiy uy faoliyati emas, balki transmilliy aloqalarni qayta tiklovchi mexanizmlar hamdir.

Transmilliy ijtimoiy tarmoqlar kundalik hayot strategiyalarining ajralmas qismi hisoblanadi. Mobil aloqa vositalari va ijtimoiy tarmoqlar migrantlarga vatandagi oila a'zolari bilan uzluksiz aloqada bo'lish, qarorlarni masofadan turib muhokama qilish va hissiy yaqinlikni saqlash imkonini beradi. So'nggi yillarda ijtimoiy media va raqamli platformalar nikoh bilan bog'liq migratsiya jarayonlarini shakllantirishda tobora muhim rol o'ynamoqda. Tanishuv saytlari, ijtimoiy tarmoqlar va xabar almashish ilovalari bunday migratsiyaning geografik va madaniy chegaralarini sezilarli darajada kengaytirdi va to'g'ridan-to'g'ri transmilliy aloqalarni ta'minladi[5]. Raqamli makonda paydo bo'layotgan narrativlar ko'pincha mezbon jamiyatni iqtisodiy farovonlik, xavfsizlik va barqarorlik maskani sifatida tasvirlaydi. Migrant ayollar tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etilgan "muvaffaqiyatli hayot" tasvirlari nikoh bilan bog'liq migratsiyani idealizatsiya qiladi. Shu bilan birga, moslashish qiyinchiliklari, huquqiy qaramlik va gender tengsizligi bilan bog'liq masalalar ko'pincha ochiq muhokama qilinmaydi[22]. Axborotning bu bir tomonlama taqdimoti migratsiya qarorlarining sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Ayollar ko'pincha to'liq bo'lmagan yoki idealizatsiya qilingan tasavvurlar asosida qarorlar qabul qiladilar. Natijada, nikoh bilan bog'liq migratsiya kutilgan natijalar va haqiqiy yashash sharoitlari o'rtasidagi tafovut fonida sodir bo'lishi mumkin.

#### 4. Xulosalar:

Xulosa o'rnida shuni takidlash kerakki, Koreyadagi o'zbek migrantlarining kundalik hayot strategiyalari mehnat, ta'lim va nikoh migratsiyasi shakllariga mos ravishda farqlansa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy jihat – transmilliy rejalashtirish, vaqtinchaliklik hissi va madaniy identifikatsiyani saqlab qolishga intilishdir. Ushbu strategiyalar migrantlarning yangi ijtimoiy muhitda moslashuvini ta'minlab, ularning madaniy o'zligini doimiy ravishda qayta ishlab chiqishiga xizmat qiladi.

#### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Axmedov O'. A. Koreya Respublikasi rivojlanishida migratsiyaning o'rni. In: O'zbekiston va Koreya Respublikasidagi migratsiya: hozirgi holat va muammolar mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti, 2023. — B. 312–313.
2. Chi N. 'Walking in Her Shoes': Prospects and Challenges of Marriage Migrants in South Korea. 年報 公共政策学 (Annual Report of Public Policy Studies), Vol. 13, 2019. – P. 88–89.
3. Dala yozuvlari. Janubiy Koreya Kangvon-do Samcheok shahri, 2023-yil.
4. Dala yozuvlari. Janubiy Koreya Kyonggi-do Hvasong shahri, 2023-yil.
5. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Namangan shahri. 2026-yil.
6. IOM. Labour Migration Pathways: Country Profile – Republic of Korea. – December 2025. – P. 9.
7. Kim Ee-gyeong. Educational Policy and Reform in Korea. – Seoul: Korean Educational Development Institute (KEDI), 2002. – P. 12–13.
8. Kim, Min Ji. The Republic of Korea's Employment Permit System (EPS): Background and Rapid Assessment / Min Ji Kim ; International Labour Office, Conditions of Work and Equality Department, Labour Migration Branch. – Geneva: ILO, 2015. – (International Migration Papers; No. 119). – P. 5.
9. Lee Y. J., Seo D. H., Cho S. N. International Marriages in South Korea. – Seoul: KIHASA, 2011. – P. 15.

10. Nowak & Partner Co. Ltd. Labor Costs in South Korea: Private & Public Sector. Updated April 2025. Seoul, 2025. – P. 2.
11. Rahimberdiyev S. Koreyadagi o‘zbek talabalarning ijtimoiy-madaniy moslashuvi. MUARRIX: Tarix ilmiy jurnali, 2025, №3. — B. 75–85. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17205372>
12. Rahimberdiyev S. B. Intellectual Migration (A Case Study of Uzbek Students Traveling to South Korea for Educational Purposes). Universal Insights Conference on Science and Society: International Scientific Conference, Vol. 1, Issue 1, December 2025. — P. 294–299.
13. Rahimberdiyev S. B. Koreya Respublikasida o‘zbek migrantlarining ijtimoiy-madaniy moslashuv jarayonlari. Qo‘qon DPI Ilmiy xabarnomasi, 2025, №5 (A seriyasi, may). — B. 52–59.
14. Rahimberdiyev S. B. Mehnat migrantlarining ijtimoiy holati va madaniy identifikatsiyasi (Koreyadagi o‘zbeklar misolida). Look to the Past, 2025, vol. 8, issue 12. — B. 42–47. DOI: 10.26739/2181-9599-2025-12.
15. Rahimberdiyev S. B. Transmilliy migratsiya sharoitida o‘zbek migrantlarining madaniy identifikatsiyasi va kundalik hayot strategiyalari (Koreya Respublikasi misolida). Namangan Davlat Pedagogika Instituti ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 14-noyabr, 2025. — B. 247–252.
16. Seuldagi hayot: Koreyada yashash qo‘llanmasi. — Seul: Seul Metropolitan Government, 2022. – 8–9 b.
17. Yoqubjonova H. Y., Davlatova Sh. O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi migratsiya jarayoni va uning rivojlanish bosqichlari. In: O‘zbekiston va Koreya Respublikasidagi migratsiya: hozirgi holat va muammolar mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent: Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2023. — B. 216–218.
18. Zahid K., Akbar S., Ghouri S. J. Cinematic Transnationalism: Migration, Identity, and Cultural Displacement in Dunki. Social Sciences & Humanity Research Review, Vol. 3, no. 3, 2025. — P. 673.
19. [https://gsc.korea.ac.kr/usr/international/student\\_visa.do](https://gsc.korea.ac.kr/usr/international/student_visa.do) (foydalanilgan sana: 22. 01. 2026).
20. <https://gsis.ajou.ac.kr/gsis/notice/faq.do?mode=view&articleNo=349553> (foydalanilgan sana: 22. 01. 2026).
21. [https://kosis.kr/eng/search/searchList.do;jsessionid=ux3zXLNVjA-xVl5ej5P1U2CnfK1U\\_QIeaNG2-OAf.esvwas4\\_S41](https://kosis.kr/eng/search/searchList.do;jsessionid=ux3zXLNVjA-xVl5ej5P1U2CnfK1U_QIeaNG2-OAf.esvwas4_S41) (foydalanilgan sana: 07. 01. 2026).
22. <https://youtu.be/HtXAY3YPSHQ?si=M3Tr8PYwvf-GID6O> (foydalanilgan sana: 07. 01. 2026).

# ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000